



UO'K: 371.315.7

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14649787>

**TA'LIM JARAYONDA ZAMONAVIY AXBOROT VA
INNOVATION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING
O'RNI VA AHAMIYATI**

**РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ИНФОРМАЦИОННЫХ И
ИННОВАЦИОННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ
В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ**

**THE ROLE AND IMPORTANCE OF MODERN INFORMATION AND
INNOVATIVE PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES
IN THE EDUCATIONAL PROCESS**

Xodjayev Begzod Xudoyberdiyevich

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

“Umumiy pedagogika” kafedrasi mudiri,

pedagogika fanlari doktori, professor

Annotatsiya.

Ushbu maqolada hozirgi kunda ta'lim jarayonida texnologiyalar, interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar va axborot texnologiyalarining o'rni va ahamiyati haqida so'z borgan.

Kalit so'zlar: *o'qituvchi, talabalar, ta'lim, texnologiyalar, interaktiv, metod, innovatsiya, axborot, texnologiya.*

Аннотация.

В данной статье рассматривается роль и значение технологий, интерактивных методов, инновационных технологий и информационных технологий в современном образовательном процессе.

Ключевые слова: *учитель, студенты, образование, технологии, интерактив, метод, инновации, информация, технологии.*

Abstract.

This article discusses the role and importance of technologies, interactive methods, innovative technologies, and information technologies in the modern educational process.

Keywords: *teacher, students, education, technologies, interactive, method, innovation, information, technology.*

Mamlakatda ta'lim sifatini, uning jamiyatda kechayotgan islohotlardagi o'rni va ishtirokini ta'minlamay turib, taraqqiyotga yuz tutish mushkul. Shu ma'noda, yurtimizda xalqaro talablarga javob beradigan oliy ta'lim tizimini yaratish bo'yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida ko'rsatilgan ustuvor yo'nalishlarida belgilab berilgan [1].

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-sonli "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora- tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan kelib chiqib, kadrlar tayyorlash mazmunini tubdan qayta qurish, xalqaro standartlar darajasiga mos oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratishi maqsadida rivojlantirish chora-tadbirlarini belgilash va amalga oshirish bugungi kundagi asosiy vazifalarimizdan biridir [2].

Ta'lim texnologiyalarning mohiyati – o'qituvchi hamda o'quvchining birgalikdagi faoliyati mazmunida aks etadi, mazkur jarayonda pedagog o'qituvchiga yuzaga kelgan qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi. Pedagogik yordamning asosiy mohiyati pedagogik jarayonning tavsifi, uning ma'lum maqsadga yo'naltirilganligi, shuningdek, shaxsni shakllantirish va tarbiyalash borasida hal etiladigan vazifalar bilan ifodalanadi. Pedagog axborotni e'lon qilish, ko'rsatish, eslatish, tushuncha yoki maslahat berish, yo'naltirish, haqqoniy lashtirish, kengashish, bartaraf etish, hamdardlik qilish, ilhomlantirish, qiziqish va hurmatni izhor qilish, talabchanlikni qo'llab-quvvatlash kabi ko'rinishlarda yordam beradi.

Ta'lim texnologiyalarning o'ziga xos xususiyati shundaki, unda ta'limning rejalashtirilgan maqsadiga erishishni kafolatlaydigan o'zlashtirish jarayoni loyihalashtiriladi. O'qituvchi va talabaning maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq: natijaga erishishga qaratilgan, bunda talabalarning bilim saviyasi, guruh xarakteri, sharoitga qarab ishlatiladigan texnologiya tanlanadi. Ma'lumki, har qanday pedagogik texnologiya ta'lim-tarbiya qonuniyatlari va prinsiplariga asoslanib, mazmunni yangicha shakllantirish, uni talabalar mulkiga aylantirishning maqbo'l shakl, yo'l, vositalaridan foydalanish, shart-sharoitlarini yaratish hamda ulardan oqilona foydalanishni ko'zda tutadi.

Ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llashda zamonaviy axborot texnologiyalari keng imkoniyatlar yaratmoqda. Ta'limda innovatsion texnologiyalar hamda zamonaviy uslublar ta'limning sifat va samaradorligini oshirib, raqobatdardosh kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi. Mazkur innovatsiyalarning samaradorligi ko'p jihatdan ta'lim muassasasida amalga oshirilayotgan innovatsion faoliyatning to'g'ri tashkil etilganligiga bog'liqdir.

Ta'lim tizimini isloh etish masalalari – zamonaviy davlatning izchil va barqaror taraqqiyoti, avvalambor, uning iqtisodiy rivojlanishi yo'lidagi muammolarni yechish bilan bevosita bog'liq ekanligiga alohida urg'u berildi.

O'zbekistonda ta'lim sohasidagi kuchli va izchil siyosat, bir tomondan, jahon ta'lim standartlarining yuksak darajasiga erishishga qaratilgan, ikkinchi tomondan esa – xalqimizning ma'naviy-madaniy qadriyatlari va o'ziga xosligini hisobga oladi.

Davlatimiz tomonidan ushbu sohada yaratilgan yuksak darajadagi sharoit va samarali himoya mexanizmlari xalqaro miqyosda mustaqil ekspertlar ("INSEAD" tadqiqotlari) tomonidan e'tirof etildi. Ta'lim tizimini rivojlantirishning bir qator ko'rsatkichlariga ko'ra, O'zbekiston jahonning ko'pgina mamlakatlaridan ustun ekanligini tadqiqotlar natijalari namoyish etdi. Xususan, tahliliy ma'lumotlar O'zbekistonning ta'lim sohasini rivojlantirish, ushbu sohaga davlat xarajatlari, kapital qurilish va maktablarni yangilash xarajatlari, o'qituvchilar sonining o'quvchilar soni bilan nisbati, aniq fanlar va muhandislik ishi sohasida bitiruvchilar soni, GMAT (biznes-maktablarda muvaffaqiyatli o'qish qobiliyatlarini aniqlash uchun standartlashtirilgan test) bo'yicha o'quvchilarning o'rtacha bahosiga doir va boshqa ko'rsatkichlari juda baland ekanligini ko'rsatdi.

Ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalarda esa, ularni egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib tahlil qilishlariga, xatto xulosalarni o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. Muhimi, ta'lim jarayonida talaba asosiy bo'g'inga aylanadi. Pedagog bu jarayonga shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olish va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Hozirgi zamon sharoitida, yuqori malakali kadrlarni tayyorlashda, o'qitishning hozirgi zamon tizimlari va yangi pedagogik texnologiyalari asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Yangi pedagogik texnologiyalarni xislati shundaki, unda qo'yilgan maqsadlarga erishish kafolatini beruvchi o'quv jarayoni rejalashtiriladi va amalga oshiriladi. Darhaqiqat, mashg'ulotlarning muvaffaqiyatli o'tishining 80 foizi ta'lim jarayonini to'g'ri loyihalashtirish, tashkil etish va uni amalga oshirishga bog'liqdir.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki kelajakda ta'lim taraqqiyotini harakatlantiruvchi kuch sifatida innovatsion ta'lim o'qituvchi faoliyatini yangilash, ta'lim-tarbiya jarayonini maqbul qurishga, talaba yoshlarda hur fikrlilik, bilimga chanqoqlik, Vatanga sodiqlik, insonparvarlik tuyg'ularini shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik doidasi bo‘lishi kerak. – T: O‘zbekiston, 2018. B.104.
2. Golish L.V., Fayzullayeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. – T: Iqtisodiyot, 2011. B.206.
3. Ishmuxamedov R. va b. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – T.: Iste’dod, 2008. B.180.
4. Innovatsion ta’lim texnologiyalari / Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To‘rayev A.B. – T.: “Sano standart” nashriyoti, 2015. B.81.